

2026 yil «27» «aprel»  
BB-08/32

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB**  
**Boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosari v.b.**  
**Sh. M. Yusupovga**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 911-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, Chimgan mahallasi, Sazbet ko‘chasi, 192-uy manzilida 0,2 ga yer maydonida Apart-otel obyekti qurilish-montaj ishlarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda amalga oshirilgan

Mazkur qarorga muvofiq investor sifatida birlashtirilgan tijorat bankining investitsiya kompaniyasi yoki uning muassisligida tashkil etilgan xo‘jalik yurituvchi subyekt ishtirok etishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Loyiha doirasida bank Apart-otel obyekti qurilishida ishtirok etish uchun investor etib belgilangan.


Shunga ko‘ra, bank yagona ta‘sischiligida tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan “BRB-CAPITAL” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischiligida tashkil etilgan “Chimgan Apartament” mas‘uliyati cheklangan jamiyati orqali Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, Chimgan mahallasi, Sazbet ko‘chasi, 192-uy manzilida Apart-otel qurish uchun ajratilgan 0,2 ga yer maydonini ijara huquqi asosida sotish bo‘yicha o‘tkazilgan yopiq elektron-onlayn auksion savdolarida auksion g‘olibi deb topilgan.

Istisno tariqasida, buyurtmachilarga maxsus axborot portalida tegishli axborotlarni joylashtirmasdan va xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazmasdan, eng yaxshi takliflarni tanlash asosida bosh pudrat tashkilotini tanlab olishga ruxsat berilgan.

Mazkur qurilish obyektida loyihalash ishlari “Gold Step Invest” MChJ tomonidan namunaviy loyihalar asosida olib borilgan bo‘lib, bino joylashuvi va uning tashqi ko‘rinishida o‘ziga xoslikni shakllantirish uchun loyiha-smeta hujjatlariga o‘zgartirish kiritish zarur

Qayd etilganlarga ko‘ra, yuqoridagi obyekt bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha Loyihalashtirish tashkilotini aniqlab olish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish yuzasidan bankning rasmiy veb sayti (<https://brb.uz>)da tanlov haqida e‘lon berilishida amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

**Bosh direktori**



**A.Sabirov**

Ijrochi: Andayev Sotiboldi

Tel: 820

<https://hujjat.brb.uz/?pin=bP23tJ62&id=af0297eb-ee46-48b3-8e4e-a45663ac47fb>